

xulosalarni tizimlashtiradi va unga asos yaratadi. Tarjima jarayonida, tarjimaning natijalari va uning g'oyalar umumlashtiriladi, shu bilan birqalikda tarjima faoliyatida tarjimaga xos bo'lган shart-sharoitlar va omillar hisobga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Murodkosimov, A., Raxmanova, D., Sanakulov, Z., & Zaripova, G. (2020). Ingliz va uzbek tillarida suz yasash usullari (kompozitsion usul misolida). Academic research in educational sciences, (2).
2. Murodgosimov A., Raxmanova D., Sanakulov Z., & Zaripova G. Ingliz va o'zbek tillarida so'z yasash usullari (kompozitsion usul misolida).
3. Latishev L.K. Tarjima texnologiyasi: Darslik. Talabalar uchun qo'llanma. Lingv. universitetlar va fakultet - 2-nashr, qayta ko'rib chiqilgan. - M.: Akademiya nashriyot markazi, 2015. - 320 b.
4. Shvaytser A.D. Tarjima nazariyasi: Holati, muammolari, jihatlari. - M: Nauka, 2018 yil. - 215 b.
5. Bell R. T. Tarjima va tarjima. L.: Longman, 2021- 298 b.
6. www.lex.uz
7. www.ziyo.net

INFORMATSION KO'RSATUVLARNI TAYYORLASHDA MUHARRIR VAZIFASI

Mirjamol HATAMOV

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Bosma va ommaviy axborot vositalari va noshirlilik ishi fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada televizion axborot dasturlarining tili va uslubi, mavzuga yondoshuv jarayonlari, axborot berishning uslublari, mualliflar qo'llaydigan janrlar, axborot tayyorlash madaniyatini yuksaltirish, uni auditoriyasini kengaytirish uchun yangicha shakl va uslublar, ta'sirchan vositalardan samarali foydalanish masalalarining dolzarbligi xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: informatsiya, televideniyeda tinglovchi, muharrir.

Informatsion ko'rsatuv tayyorlash jarayonida jarayonida muharrir ishtiroki, o'mni va ahamiyati juda muhim hisoblanadi. "Voqelik qanchalik rang-barang aks etsa,

xabarning axboriy qiymati shunchalik yuqori bo‘ladi. Chunki turli xalqlar, davlatlar, uyushmalarning birdek demokratik qadriyatlarga intilishlaridan qat’iy nazar, ular madaniy va siyosiy ong darajasining turli bosqichida turadilar”¹⁵⁷. [1,1] Albatta jurnalist axborot tayyorlar ekan, bir qolip ichida qolib ketmasligi kerak, undagi mazmun-mohiyatni ochib berishda turli janrlarga murojaat qilinar ekan, ko‘rsatuvning rang-barangligi yanada oshadi.

“Jurnalist o‘z chiqishlari bilan minglab, millionlab omma ongiga, tafakkuriga ta’sir o‘tkazadi. Dunyoqarashlarini shakllantiradi, faoliyatlarini yo‘naltiradi. Siyosiy munosabatlar hamda davlatlar orasidagi muhitni o‘zgartirib yuborishga qodir axborot tarqatadi”¹⁵⁸. [1,2]

Bunday sharoitda jurnalist axboroti zimmasiga ijobiy va salbiy mazmundagi fakt va xabarlarni mutanosib xolda uzatish, voqelikni kimningdir nuqtai nazaridan kelib chiqib talqin etishdan qochish vazifasi ham yuklanadi. Shu munosabat bilan OAV xodimlari ijodida voqelik manzaralarini talqin etish, sharhlash muammosi ham kelib chiqmoqda. Chunki, jurnalist axborotida har doim muallifning, muharririyatning yoki ta’sischining ijtimoiy tajribasi va intilishlari o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. Shu bois ayni bir fakt, voqeа turli siyosiy, ijtimoiy yo‘nalishdagi nashrlar tomonidan turlicha baholanishi, tushuntirilishi, sharhanishi ham mumkin.

“Demak, jurnalist talqini hayotning yoritilayotgan bir “bo‘lagini” voqeliqdagi aynan shunga monand hodisalar mezonida baholash va ularni o‘zaro qiyoslash orqali ijtimoiy qiymati va ahamiyatini tayin etish imkonи va usulidir”¹⁵⁹. [1,3]

Talqin bu yerda ijtimoiy asosdan kelib chiqmokda. Bu xususiyat umuman muharrir faoliyatiga ham, jurnalist axborotiga ham xos. Jurnalist madaniyati va bu madaniyatning shakllanishi inson tabiatiga xos bo‘lgan shaxsiylik va jamoaviylik hislatlaridan tarkib topadi. Shu bois, har qanday axborotda pragmatik hususiyat – baholash amali ham mavjud bo‘ladi.

¹⁵⁷ Nesterenko F.P. va boshq. Lug‘at-ma’lumotnama: Jurnalistika, Reklama, Pablik Rileyshnz:1700 atama. –T.: Zar qalam. 2003. -27b.

¹⁵⁸ Do‘stmuhammad X. Jamiyat oldidagi mas’ulyat. //O‘zbekiston matbuoti. 2006. №1. – 8 b

¹⁵⁹ Ernazarov Q. Mamatova Yo. va boshq. Reportyorlik faoliyatining nazariyasi va amaliyoti. – T.:O‘zMU. 2002.-34b

“Xalqimiz ommaviy axborot vositalaridan mamlakatimiz va xorijda sodir bo‘layotgan voqealar to‘g‘risida xolis va tezkor axborotlar olishni, shu bilan birga, birinchi navbatda, hokimiyat organlari va boshqaruv tizimlari faoliyati haqidagi tanqidiy fikrlarni, islohotlar va yangilanishlar yo‘lidan ilgari borishimizga to‘sinq bo‘lib turgan nuqsonlar, hayotdagi dolzarb muammolar xususida oshkora, professional tahliliy materiallarni kutadi”¹⁶⁰. [1,4]

Mutaxassislarning fikricha, jurnalist xolisligining cheklanganligi uning milliy, diniy, ahloqiy qarashlari bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Biror bir voqea yoki xodisa haqida gap ketganda, faqat uning tafsiloti bayon qilinadi. Jurnalistning shaxsiy mulohazasi va bu hususidagi qarashlarini yangilik sifatida axborotga qo‘shmaydi.

Ba’zi muhim yangiliklar boshqa informatsion ko‘rsatuvlarga qaraganda kechroq beriladi. Albatta, bu o‘rinda ma’lumot eskirganidan keyin uning axboriylik qiymati pasayadi. Ko‘rsatuv muharrirlarining mahorati oldingi o‘ringa chiqadi. Ya’ni, bunday vaziyatda muallifning turli nuqtai nazarlardan yondoshib, mavzuni yoritishi axborotni qiziqarli chiqishiga yordam beradi.

Axborot tayyorlashda jurnalistlarimiz voqeani yoritishda kompozitsion postanovkasiga a’lovida e’tibor qaratiladi. Bu yerda voqealar ketma-ketligini asosan tadrijiy rivojlantirib boriladi. Ya’ni, muallif har bir voqeani eng muhim faktlarini oldingi o‘ringa chiqarishga harakat qiladi, keyin shunga mos ravishda davom ettirib, rivojlantirib boradi.

Avvalo, materialni tayyorlashda qo‘llaniladigan uslub ham muallifning qanday maqsadni oldiga qo‘yanligiga bevosita bog‘liq. Dastlab, voqealar tizginini muallif o‘z ongida rivojlantiradi, keyin dolzarbligiga qarab bir tekis ularni joy-joyiga qo‘yib chiqadi. Jurnalist biror bir mavzuni yoritar ekan, avvalo, borgan joyida ziyrak bo‘lishi, vaqt ni behudaga sarf etmasligi lozim. Iloji boricha ko‘proq fakt va dalillarni yig‘ib kelishi kerak.

¹⁶⁰ Ernazarov Q. Mamatova Yo. va boshq. Reportyorlik faoliyatining nazariyasi va amaliyoti. – T.: O‘zMU. 2002. -34 b.

Informatsion ko‘rsatuvini efirga tayyorlashda asosiy e’tibor yoritiladigan mavzuning muhimligi va dolzarbliligiga, tezkorlik, montaj ketma-ketligi, matn bilan videotasvirning uyg‘unligiga qaratiladi. Guruhning barcha ijodiy va texnik xodimlari birgalikda harakat qilishadi. Bu yerdagi ijodiy jarayonlarga asosan muharrir boshchilik qiladi.

Dastur tayyorlashdan oldin shu kun uchun javobgar barcha ijodiy xodimlar bosh muharrir xonasiga jam bo‘lishib, o‘z taklif-mulohazalari bilan o‘rtoqlashishadi. So‘ngra tasdiqlangan tartib bo‘yicha har kim o‘ziga topshirilgan topshiriq bo‘yicha ishga kirishadi. Materiallarning barchasi soat chamasi 4-5-6 largacha tayyor bo‘lib ko‘rsatilishi kerak.

Materiallar asosan yuqori rahbariyatdan ijro uchun tushirilgan xatlar asosida tasvirga olinadi. Bundan tashqari erkin mavzularda ham jurnalistlar qalam tebratishadi.

Mavzu aniq bo‘lgach, hafta avvalidan tayyorgarlik ishlari boshlab yuboriladi. Mavzuni yoritishga topshiriq olgan muallif birinchi navbatda rejissyorga uchrashadi, rejissyor o‘z navbatida qanday kadrlarni topib bera olishi va yana nimalarni tasvirga olib kelishi hususida aniq yo‘nalishlar beradi. Bu esa o‘z navbatida ortiqcha sarf-harajatlar va vaqt ni tejaydi.

Albatta, yangilik topilganidan so‘ng muallif uni tezkor yetkazaman deb, ba’zan shoshilganda raqamlarda, faktlar keltirishda xatoga yo‘l qo‘yishi mumkin. Shuning uchun muallif birinchi navbatda faktlarni asosliyligiga e’tibor qaratib, keltirilayotgan raqamlarning to‘g‘riligini tekshirib ko‘radi, voqealarning haqqoniyligiga e’tibor qaratadi.

Xatlar asosida tayyorlanadigan materiallarda esa faktlar asosan tashkilotchilar tomonidan taqdim etiladi. Bu yerda xatoliklar kam uchrasada, bari-bir muallif keltirilgan faktlarni bir tekshirib olishi lozim. Chunki, ularda ham xatoliklar ketishi mumkin.

“Agarda dunyoda mavjud bo‘lgan fakt, yuz bergen voqea, hodisalar uning tashqi, ko‘zga ko‘rinib turgan yuza qatlagini tashkil etsa bu faktlarning asosi, voqea va xodisalarning asl mohiyati, ob’ektiv qonuniyati ularning ko‘zga ko‘rinmaydigan ichki,

chuqur qatlamlarini hosil qiladi, odamzod bu qatlamga yetib borish, anglashi uchun ikkinchi bir, oldingisidan chuqurroq bilish usuli – tahlil va tadqiqni ishga soladi”¹⁶¹.

Informatsion dasturlar muharririysi tomonidan tayyorlanayotgan har bir reportaj chuqur tahlildan o‘tadi. Avval lavhaga biriktirilgan muharrir, so‘ng bosh muharrir o‘rinbosari, keyin barcha rahbariyat ko‘zdan kechirib oladi. Shubhali ma’lumotlar bo‘lsa birdan ko‘rik to‘xtatilib, rejissyor uni qayta eshittiradi. Ma’lumot yana bir bor tekshirib ko‘rilganidan so‘ng efirga uzatiladi. Bundan tashqari har bir axborot yuqori saviyada bo‘lishiga, yoritilayotgan mavzuga holisona yondoshilishiga, tezkorlik va birxillikdan qochishga a’lovida e’tibor qaratiladi.

“Material yozishda jurnalist asosan beshta bosqichdan o‘tishi kerak. Ular quyidagilardan iborat:

- birinchi bosqich – materialni nima bilan to‘ldirishni tasavvur etish;
- ikkinchi bosqich - faktlar to‘plash;
- uchinchi bosqich – faktlarni analiz qilish va material planini tuzish;
- to‘rtinchi bosqich – barcha bilgalarni qog‘ozga (nabroska) tushirish;
- beshinchi bosqich – tekstni qayta tahrir qilish va qayta ishlash;

Jurnalistlarning yuqoridagi etaplarning birida ishni yaxshi tashkil etmasa qiyinchiliklar vujudga kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarda ishni qaytadan boshlash orqali yaxshi natijaga erishish mumkin”¹⁶². [1,5]

Material ko‘rikdan o‘tganidan so‘ng guruhi a’zolari yig‘ilib, ulardagi yutuq va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni muhokama etadilar va o‘z navbatida eng yaxshilarini rag‘batlantirib, arzigulik tajribalarni ommaviylashtirishga harakat qiladilar.

Bundan tashqari efirga uzatilgan eng yaxshi materiallar bosh muharririyat qoshida tuzilgan Badiiy Kengash yig‘ilishida muhokamadan o‘tkazilib, jurnalistlar uchun ta’sis etilgan turli mukofotlarga va teleradiokompaniyaning sovrinlariga tavsiya etiladi. Shu o‘rinda dastur ijodkorlarining har yili bir qator nominatsiyalarda mukofotlarni qo‘lga kiritganliklari e’tiborga molik.

¹⁶¹ M. Xudoyqulov. Jurnalistika va publisistika. (O‘quv qo‘llanma) T.: “Universitet” nashriyoti. 2008 yil (141-bet)

¹⁶² M.F. Mellet Spravochnik dlya jurnalistov stran sentralnoy i vostochnoy Evropy M.:1998 «Prava cheloveka» nashriyoti. 21-b.

Olimlardan biri: “Har qanday axborot bilim emas va har qanday bilim axborot bo‘lolmaydi”¹⁶³ - deya ta’rif beradi. [1,6] Ko‘pchilik ekspertlarning fikricha, oldindan ma’lum bo‘lmagan biror narsa, xodisa haqidagi har qanday xabar axborot, deb ataladi. Mazkur tavsiyani, bizning fikrimizcha, axborot, faktlar haqidagi xabardangina iborat bo‘lib qolmay, inson ichki ehtiyoji bo‘lmish muloqotni ta’minlovchi aloqa qilish amaliy va fikr almashish jarayoni hamdir.

Ko‘rsatuv ijodkorlari tomonidan tayyorlangan reportajlarda tezkorlik birinchi o‘rinda tursada, fakt va dalillardan asosli o‘z o‘rnida foydalanishga asosiy e’tibor qaratiladi. Bu o‘rinda dastur ta’sirchanligini ta’minlashda avvalo berilayotgan axborotlar foydalilik darajasiga qarab saralanar ekan.

Ma’lumki, tinglovchi va tomoshabin birinchi navbatda voqealarni sodir bo‘lgan joy va uning ishtirokchilariga e’tibor qaratadi. Faktlarni to‘plashning yana bir usuli – xabardor odamlar bilan suhbatlar o‘tkazishdir. Voqealarning bevosita ishtirokchisiga aylangan kishi muxbiriga bo‘lib o‘tgan hodisani aytib bera oladi. Muxbir olgan axborotlaridan foydalanib, ehtimol, ayrim so‘zlarni sitata sifatida keltirishi ham mumkindir.

Har ikki informatsion dasturda ham voqealarni qisqa va lo‘nda, ixcham tayyorlashda va uni barcha jihatlari bilan qamrab olinishiga asosiy e’tibor qaratiladi. Chunki, ular ulkan va murakkab hodisalarning bayonini bir necha daqiqalar ichida berib ulgurishlari, ba’zan turli joylarda sodir bo‘lgan bir xil mavzudagi voqealarni bir 3-4 daqiqa ichiga sig‘dirib efirga uzatiladi. Bu o‘rinda muallif faktlarning eng saralarini terib xronologik joylashtiradi. Bu o‘rinda yozilgan matn tilining hammaga tushunarli va faktlarning qaytarilmasligiga asosiy e’tibor qaratiladi.

Muharririyatda ijodkorlarning yana bir yutug‘i bu albatta barcha narsadan xabardor bo‘lishlarida, o‘z mahoratlarini doimiy ravishda oshirib borishlarida desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Chunki, respublika uchun axborot tayyorlash, ko‘rsatuv olib borish muayan qobiliyat, mahoratni va mas’uliyatni talab etadi. Jurnalist nafaqat qalami o‘tkir, sezgir va ziyrak bo‘lishi, shu bilan birga zamon bilan hamnafas borishi, ijtimoiy-siyosiy jihatdan yetuk va iqtisodiy bilimlarni chuqur egallagan bo‘lishi kerak. Masalan,

¹⁶³ Afanasev V.G. Informatsiya kak resurs upravleniya // Kibernetika. Stanovlenie informatiki. — M.1986.- 157 6.

rejissuraning so‘ngi yutuqlarini bilmasdan, axborot texnologiyalaridan foydalanmasdan yaxshi reportaj tayyorlash qiyin.

Ko‘rsatuvni tayyorlash jarayonida rejissura yordamida turli kompyuter grafikalari, jadvallardan foydalanish, mavzuga mos ravishda musiqa tanlash, intershumlarni o‘z o‘rnida qo‘llay olish, axborot texnologiyalaridan matnda foydalanish juda muhim sanaladi.

Albatta, buni maromiga yetkazish uchun muallif teleboshlovchilik san’atini puxta egallagan bo‘lishi, fakt va detallarni o‘z o‘rnida qo‘llay olishi kerak. Shuning uchun ko‘rsatuv ijodkorlari teleradiokompaniyaning direktorlaridan doimiy ravishda o‘z tajriba va malakalarini oshirib borishar ekan.

Amerikalik jurnalist ta’kidlaganidek: “Jurnalist tabiatan og‘ir inson bo‘ladi. Men boshqalarning nolishidan charchadim. Men hattoki o‘zimni ichimdagi ichki kurashdan charchadim. Lekin fakt, faktligicha qoladi: tajriba to‘plagan bo‘lsamda yozish men uchun hamon murakkab jarayonligicha qolmoqda, chunki yillar o‘tib o‘zimni yozishimga qo‘yadigan talabim ham ortib bormoqda. To‘g‘ri vaqt o‘tib siz to‘plagan tajriba bilan redaktorning ham ishini qila olasiz, biroq men aminmanki yozishni siz hech qachon mukammal o‘rgana olmaysiz”¹⁶⁴. [1,7]

Darhaqiqat, har gal material yozishga o‘tirganida ijodkor, hattoki eng professional jurnalist ham ushbu jarayonni boshidan o‘tkazganliklarini ta’kidlashadi. Jurnalistikaning o‘ziga hosligi ham balki shundadir. Zero, jurnalistikani arxitektorning ishiga qiyoslash mumkin. Mustahkam asosga qurilgan imorat uzoq vaqt davomida xizmat qiladi, aksincha suv, oldi-qochdi gaplardan va chiroyli iboralardan iborat bo‘lsa-yu, asosi mustahkam bo‘lmasa u xabarni har qancha chiroyli uy kabi qurilgan bo‘lsada, qulab tushishi, ya’ni xotiradan tezda o‘chib ketishi muqarrar.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Nesterenko F.P. va boshq. Lug‘at-ma’lumotnomasi: Jurnalistika, Reklama, Pablik Rileyshnz:1700 atama. –T.: Zarqalam. 2003. – 27 b.

¹⁶⁴ Don Myurrey. Amerika jamiyatni redaktorlari gazetasi byulleteni. 1998.

2. Do'stmuhammad X. Jamiyat oldidagi mas'ulyat. //O'zbekiston matbuoti. 2006. №1. – 8–b.
3. Ernazarov Q. Mamatova Yo. va boshq. Reportyorlik faoliyatining nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zMU. 2002. –34 b.
4. Xudoyqulov M. Jurnalistika va publitsistika. (O'quv qo'llanma). – T.: Universitet, 2008. –141-b.
5. Mellet M. F. Spravochnik dlya jurnalistov stran sentralnoy i vostochnoy Yevropi. – M.: Prava cheloveka, 1998. – 21-b.
6. Afanasev V. G. Informatsiya kak resurs upravleniya. // Kibernetika. Stanovlenie informatiki. — M., 1986. – 157 6.
7. Don Myurrey. Amerika jamiyati redaktorlari gazetasi byulleteni. 1998.

ZAMONAVIY LEKSIKOGRAFIYADA KONSEPTLARNI KORPUSINI TEKSHIRISH MASALALARI

Nargiza MAXSUDOVA
*Andijon davlat chet tillari instituti,
Ingliz tili amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi
ORCID ID 0009-0003-4325-7789*

Annotatsiya. Ushbu maqolada kontseptlarni leksikografik tavsiflashning asosiy muammolari sifatida, ularni vaqt o'tishi bilan ishning eskirishi muammosi, kontseptlar o'zgarishi mumkinligi va ular muntazam yangilanishlar talab qilinishi tog'risida so'z boradi. Zero, kontseptlarni korpusni tekshirish muammosi zamonaviy leksikografiya uchun dolzarbdir. Bu esa keng qamrovli ilmiy yechimlarni talab qiladi.

Kalit so'zlar: konsept, lug'at ta'riflari, korpus, matn, maydon, tafsif, tasvir.

Konsept bilim va madaniy tajribaning turli qismlari haqidagi ko'p qirrali ma'lumotlarni aks ettiradi. Shu bilan birga, lug'at ta'riflari aniq bo'lib, kontsept mazmunining barcha boyligi va murakkabligini to'liq ochib berishi lozim. Bu kontseptlarni leksikografik tavsiflashning asosiy muammolaridan biridir. Konseptlar boy assotsiativ va semantik maydonga, shu jumladan, turli xil ma'no, tasvir va belgilarga ega. Ushbu assotsiatsiyalarning kontseptlarning leksikografik tavsifi doirasida to'liq uzatilishi ko'pincha qiyin kechadi.